

XIII. DEMOGRAFIK HOLAT

Andijon viloyati 1941- yilda tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi.

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 4,3 ming kv. km Chegara uzunligi 617,1 km Andijon viloyati Farg'ona viloyati bilan (101,2 km), Namangan viloyati bilan (106,6 km), Qirg'iz Respublikasi bilan (409,3 km) chegaradosh.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 2 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km.ga 764 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Andijon shahri bo'lib, aholisi 465,7 ming kishi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil 1- yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 322,8 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 69,2 ming kishiga yoki 102,1 % ga o'sdi.

Shu bilan birga, shahar aholisi soni 1734,3 ming kishini (jami aholi soniga nisbatan 52,2 %), qishloq aholisi soni 1588,5 ming kishini (47,8 %) tashkil etadi.

Doimiy aholi soni

3 322,8 ming kishi

Tabiiy o'sish

71,1 ming kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

Shahar joylarda



53,3 %



1 734,3 ming kishi

Qishloq joylarda



48,8 %

1 588,5 ming kishi



Andijon viloyatining ma'muriy-hududiy bo'linishi

2023- yil 1- yanvar holatiga



ANDIJON VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

2022- yil yanvar-dekabr, dastlabki ma'lumotlar



Doimiy aholi soni

3 322 772 kishi



Tug'ilganlar soni

86 481 kishi



O'lganlar soni

15 427 kishi



Nikohlar soni

25 867 birlik



Nikohdan ajralishlar soni

5 019 birlik



Ko'chib kelganlar soni

6 585 kishi

shundan, xorijdan

2 kishi



Ko'chib ketganlar soni

8 395 kishi


shundan, xorijga

71 kishi

**Andijon viloyatining shahar va tumanlari bo'yicha doimiy aholi soni
to'g'risida ma'lumot**
(2023- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumot)

	Doimiy aholi soni, kishi				
	Jami	shu jumladan:		shu jumladan:	
		erkaklar	ayollar	shahar	qishloq
Viloyat bo'yicha:	3 322 772	1 683 168	1 639 604	1 734 284	1 588 488
<i>shaharlar:</i>					
Andijon	468 049	235 746	232 303	468 049	-
Xonobod	45 021	22 497	22 524	38 145	6 876
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko'l	189 044	95 586	93 458	99 198	89 846
Andijon	280 041	139 846	140 195	214 603	65 438
Baliqchi	211 314	107 772	103 542	70 773	140 541
Bo'ston	76 237	38 507	37 730	26 942	49 295
Buloqboshi	149 918	76 360	73 558	72 138	77 780
Jalaquduq	195 184	99 489	95 695	81 423	113 761
Izboskan	250 333	127 524	122 809	80 119	170 214
Ulug'nor	62 970	31 522	31 448	6 600	56 370
Qo'rg'ontepa	226 071	113 970	112 101	96 374	129 697
Asaka	347 503	175 763	171 740	107 165	240 338
Marhamat	182 498	93 160	89 338	143 582	38 916
Shahrixon	317 210	162 125	155 085	104 911	212 299
Paxtaobod	204 202	103 539	100 663	74 611	129 591
Xo'jaobod	117 177	59 762	57 415	49 651	67 526

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2023- yil 1- yanvar holatiga, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni va o'sish sur'ati

	2022- yil 1- yanvar holatiga, kishi	2022- yil 1- yanvar holatiga, kishi	O'tgan yining mos davrilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	3 253 528	3 322 772	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	458 506	468 049	102,1
Xonobod	43 962	45 021	102,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	184 693	189 044	102,4
Andijon	273 801	280 041	102,3
Baliqchi	207 089	211 314	102,0
Bo'ston	74 721	76 237	102,0
Buloqboshi	147 000	149 918	102,0
Jalaquduq	191 466	195 184	101,9
Izboskan	245 595	250 333	101,9
Ulug'nor	61 831	62 970	101,8
Qo'rg'ontepa	222 111	226 071	101,8
Asaka	339 971	347 503	102,2
Marhamat	178 766	182 498	102,1
Shahrixon	309 993	317 210	102,3
Paxtaobod	199 876	204 202	102,2
Xo'jaobod	114 147	117 177	102,7

Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati (yanvar - dekabr)


	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2021- yil	2022- yil	o'sish, kamayish, +,-	2021- yil	2022- yil
Tug'ilganlar	84 664	86 481	1 817	26,3	26,3
O'lganlar	16 409	15 427	-982	5,1	4,7
Nikohlar	26 740	25 867	-873	8,3	7,9
Ajralishlar	3 945	5 019	1 074	1,2	1,5
Ko'chib kelganlar	6 965	6 585	-380	2,2	2,0
Ko'chib ketganlar	9 796	8 395	-1 401	3,0	2,6

Tug‘ilish. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilganlar soni 86 481 kishini tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga (84 664 kishi) nisbatan 1 817 taga kamaydi, Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 26,3 promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan promilleda o‘zgarish bo‘lmagan.




Viloyat bo‘yicha tirik tug‘ilganlar soni hamda koeffitsiyenti
2022- yil yanvar-dekabr davri uchun (1000 aholiga nisbatan, promille)

Tirik tug‘ilganlar soni, kishi



Tug‘ilish koeffitsiyenti
(1000 aholiga nisbatan, promille)



Tug‘ilganlar sonining jinsi va tug‘ilgan joyi bo‘yicha taqsimlanishi
2022- yil yanvar-dekabr holatiga, kishi




	Jami	jinsi bo‘yicha		joyi bo‘yicha	
		o‘g‘il bolalar	qiz bolalar	shahar	qishloq
Viloyat bo‘yicha:	86 481	44 739	41 742	44 620	41861
shaharlar:					
Andijon sh.	13 198	6 887	6 311	13 198	-
Xonobod sh.	1 100	579	521	1 100	-
tumanlar:					
Oltinko‘l	4 985	2 580	2 405	2 405	2 580
Andijon	7 323	3 662	3 661	5 713	1 610
Baliqchi	5 304	2 782	2 522	1 140	4 164
Bo‘ston	1 910	981	929	809	1 101
Buloqboshi	3 708	1 922	1 786	1 449	2 259
Jalaquduq	4 771	2 410	2 361	1 880	2 891
Izboskan	6 360	3 323	3 037	2 044	4 316
Ulug‘nor	1 511	805	706	240	1 271
Qo‘rg‘ontepa	5 017	2 560	2 457	2 100	2 917
Asaka	9 049	4 656	4 393	3 054	5 995
Marhamat	4 657	2 422	2 235	3 348	1 309
Shahrixon	8 834	4 679	4 155	2 915	5 919
Paxtaobod	5 513	2 837	2 676	1 971	3 542
Xo‘jaobod	3 241	1 654	1 587	1 254	1 987

2022- yil yanvar-dekabr davrida tirik tug‘ilganlar sonidan o‘g‘il bolalar soni 44 739 nafarni yoki jamidan 51,7 foizni tashkil etdi. Mos ravishda qiz bolalar soni 41 742 nafar va jamidan 48,3 foizni tashkil etdi. Shahar joyda tug‘ilganlar soni 44 620 nafarni (jamidan 51,6 %) tashkil etdi, qishloq joylarda tug‘ilganlar soni esa 41 861 nafarni (jamidan 48,4 %) tashkil etdi.

Vafot etganlar. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida 15 427 mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi.

O‘limning sabablari bo‘yicha taqsimlanishi
(yanvar-dekabr)



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,6 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,9 % o‘smalardan, 4,4 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,5 % ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 4,5 % nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 0,8 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 14,3 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Nikohlar va ajralishlar. 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohlar va nikohdan ajralishlar qayd etildi. Jami tuzilgan nikohlar soni 25 867 ta (o'tgan yilning mos davrida 26 740 ta), ajrimlar soni 5 019 ta (o'tgan yilda 3 945 ta)ga teng bo'ldi. Qayd etilgan nikoh ko'rsatkichi 1 000 aholiga nisbatan 7,9 promilleni (2021-yilning tegishli davrida 8,3 promille) va ajrim ko'rsatkichi 1,5 promilleni (2021 -yilning tegishli davrida 1,2 promille) tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni


(yanvar - dekabr)

(birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2021- yil	2022- yil	2021- yil	2022- yil
Viloyat bo'yicha:	26 740	25 867	3 945	5 019
<i>shaharlar:</i>				
Andijon	4 037	3 908	776	1 052
Xonobod	302	298	66	66
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	1 560	1 520	216	273
Andijon	2 359	2 078	369	464
Baliqchi	1 765	1 684	211	242
Bo'ston	598	606	76	108
Buloqboshi	1 235	1 252	171	213
Jalaquduq	1 562	1 485	192	212
Izboskan	1 964	1 971	340	395
Ulug'nor	457	477	72	96
Qo'rg'ontepa	1 676	1 490	232	236
Asaka	2 621	2 536	384	521
Marhamat	1 572	1 461	179	261
Shahrixon	2 421	2 538	293	419
Paxtaobod	1 594	1 655	216	298
Xo'jaobod	1 017	908	152	163




Viloyat bo'yicha tuzilgan nikohlar soni va nikohlar koeffitsiyenti
2022- yil yanvar-dekabr holatiga



Nikoh tuzish koeffitsientining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sishi Shahrixon tumanida (0,2 promillega), Paxtaobod (0,1 promillega) kuzatildi.


Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Qo'rgontepa tumanida (1,0 promillega), Marhamat tumanlari (0,8 promillega) va Baliqchi tumanida (0,6 promillega) kuzatildi.

Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlik)



Ajrim koeffitsiyentida aksariyat tumanlarda avvalgi yilga nisbatan o'sish kuzatildi. Avvalgi yilga nisbatan eng ko'p o'sish Bo'ston, Asaka, va Marhamat tumanlarida (0,4 promillega), Andijon shahri (0,6 promillega) ro'y berdi.

Viloyat bo'yicha nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti (2022- yil yanvar-dekabr davri, 1000 aholiga nisbatan, promille)





Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6 585 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 8 395 kishini tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 1 810 kishini tashkil etgan, 2021- yilning mos davrida minus 2 831 kishi bo'lgan.

Aholining migratsiya ko'rsatkichlari
(yanvar - dekabr)

(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldos</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
Viloyat bo'yicha	6 965	6 585	9 796	8 395	-2 831	-1 810
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	1 536	1 731	2 645	2 175	-1 109	-444
Xonobod	219	265	160	166	59	99
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	664	586	548	421	116	165
Andijon	1 498	1136	916	917	582	219
Baliqchi	319	266	565	365	-246	-99
Bo'ston	192	184	178	176	14	8
Buloqboshi	254	126	374	391	-120	-265
Jalaquduq	366	255	549	537	-183	-282
Izboskan	46	61	675	552	-629	-491
Ulug'nor	113	31	219	145	-106	-114
Qo'rg'ontepa	338	308	683	561	-345	-253
Asaka	162	313	527	519	-365	-206
Marhamat	216	208	414	340	-198	-132
Shahrixon	171	184	603	495	-432	-311
Paxtaobod	332	268	372	347	-40	-79
Xo'jaobod	539	663	368	288	171	375